

Adhamjon Mamadiyorov,

O'zbekiston Milliy universiteti Tabiiy geografiya kafedrasida tayanch
doktoranti

**TUZKON KO'LI VA UNING ATROFIDAGI TURISTIK
OBYEKTLAR VA MARSHRUTLAR**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tuzkon ko'li va uning atrofidagi turistik obyektlar, turistik marshrutlarni tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolani yozishda turistik obyektlar haqidagi ma'lumotlar o'rganilgan adabiyotlar va dala tadqiqotlari asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: turizm, rekreatsiya, Tuzkon, ko'l, ekoturizm, Aydarko'l, ovchilik, baliqchilik, sohil, qirg'oq.

Адхамжон Мамадиёров,

Базовый докторант кафедры Физической географии Национального
университета Узбекистана

**ТУРИСТИЧЕСКИЕ ОБЪЕКТЫ И МАРШРУТЫ ПО ОЗЕРУ
ТУЗКОН И ЕГО ОКРЕСТНОСТЯМ**

Аннотация: В данной статье представлено возможности развития туристических объектов и организовать туристических маршрутов вокруг озера Тузкон. При написании статьи информация о туристских объектах дано на основе изученной литературы и полевых исследований.

Ключевые слова: туризм, рекреация, Тузкан, озеро, экотуризм, Айдаркул, охота, рыбалка, пляж, побережье.

Adhamjon Mamadiyorov,

Basic doctoral student at the Department of Physical Geography of the
National University of Uzbekistan

**TOURIST OBJECTS AND ROUTES IN TUZKON LAKE AND ITS
SURROUNDINGS**

Annotation: This article describes the possibilities of organization and development of tourist objects, tourist routes around Lake Tuzkon. When writing the article, the information about tourist objects is presented on the basis of studied literature and field research.

Keywords: tourism, recreation, Tuzkan, lake, ecotourism, Aydarkul, hunting, fishing, beach, coast.

Kirish. Turizm insonlarni o'ziga jalb qiladigan, xalqlarning tabiatini, madaniyati, urf-odatini o'rganadigan, shuningdek, odamlarning xordiq chiqarib davolanishlarini ta'minlabgina qolmay, balki iqtisodiyotning o'sish darajasini tezlashtirishga xizmat qiladigan tarmoq sifatida shakllanib bormoqda. Jahonning barcha hududlarida turizm birdek rivojlangan emas. Ammo, ba'zi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining asosini turizm sohasining o'zi tashkil qiladi. Qizilqum cho'lining janubi-sharqiy qismida joylashgan Tuzkon ko'li va uning atrofidagi rekreatsion-turistik resurslaridan samarali foydalanishga asos bo'luvchi tabiiy geografik omillar va obyektlarni aniqlash, turistik resurslari imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos turistik yo'nalishlar va marshrutlarni tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tuzkon ko'li atrofidagi landshaftlar va ularning tabiiy sharoiti N.A.Kogay, L.N.Babushkin, A.A.Rafiqov, L.A.Alibekov, A.A.Abdulqosimov, N.I.Sabitova, A.Raxmatullayev, S.B.Abbasov, N.I.Ismatov, N.R.Alimqulov, M.R.G'o'dalov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Tuzkon ko'li joylashgan hududning geologik tuzilishi va relyefi haqida Sh.D.Davlatov, M. Mamatqulov, suvlari to'g'risida E.I.Chembarisov, I.E.Maxmudov, T.Y.Lesnik, F.H.Hikmatov, tuproqlari haqidagi ma'lumotlar M.A.Pankov, V.G.Gafurov, O.Komilov, A.N.Nigmatov, V.Y.Sektimenko, A.J.Ismanov, R.Qurvontoyev va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining paydo bo‘lishi munosabati bilan uning suv balansi, rejimi, gidrokimyosi, o‘simlik va hayvonot olamining o‘zgarishiga doir ko‘pgina ishlar bajarildi. Ular orasida N.Y.Gorelkin, A.M.Nikitin, D.E.Maxmudova, G.N.Trofimov, G‘.O‘.Qodirov kabilarning ishlari ahamiyatlidir.

Yuqorida keltirilgan ishlarda Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi ko‘plab jihatdan o‘rganilgan, ammo Tuzkon ko‘li va uning atrofidagi turistik obyektlar va marshrutlar o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu masalaga bag‘ishlanganligi bilan yuqoridagi ishlardan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni olib borishda kompleks geografik, kartografik, geografik axborotlar tizimi (GIS), adabiyotlar va fond materiallari bilan ishlash, dala tadqiqot kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Atrofimizdagi o‘rab turgan ona tabiat insoniyat mavjudligining bosh shartidir. Zero, insoniyatni tabiat va uning inson ta‘sirida o‘zgargan qismisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Inson o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra tabiatning ajralmas qismidir. Tabiat inson hayoti uchun eng zarur bo‘lgan suv va havogina emas, balki barcha turdagi moddiy ne‘matlar manbayi ham hisoblanadi.

Turizm terminini birinchi bo‘lib 1830-yilda V. Jekmo fanga olib kirgan. Avvalo, turizm so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, u fransuz tilida “tourisme” – sayohat qilish, dam olish bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma‘rifiy vazifalarni bajarish degan ma‘noni anglatadi. {2}

Tuzkon ko‘li va uning atrofidagi turistik hududda ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb etuvchi turistik obyektlar mavjud. Jumladan, Jizzax shahridan chiqqan sayyohlar ushbu yo‘nalishda Temiryazovda ohaktosh qazib olinishini, Qili soyligidagi tik jarliklar, Pistalitog‘ manzaralari, Tuzkon ko‘li va shifobaxsh balchiqlarini, to‘qay va cho‘l manzaralaridan bahra olishlari mumkin bo‘ladi.

Tuzkon ko‘li Jizzax viloyatidagi asosiy turistik obyektlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko‘l va uning sohilbo‘yi hududlarining qulay iqlimiy sharoiti, flora va faunaga boyligi hamda betakror ko‘l sohillarining mavjudligi turizmning

ko‘plab turlarini tashkil etish va insonlarning rekreatsion faoliyat ko‘rsatishlariga imkon yaratadi.

Rekreatsiya so‘zi polyakcha “rekreatsiya” – “dam olish”, lotincha “rekreatio” – “sog‘liqni tiklash” demakdir.

Insonning rekreatsion faoliyati dam olish, xordiq chiqarish, sog‘liqni tiklash, tabiat va madaniyat obyektlaridan zavqlanib, ruhiy kayfiyatni ko‘tarishga qaratilgan faoliyat majmuasini o‘z ichiga oladi. Rekreatsion faoliyat insonning ruhiy holati va mehnat qobiliyatini tiklash bilan birga, unga ona tabiat va uning xususiyatlari to‘g‘risida xilma-xil va boy ma‘lumot beradi, uning dunyoqarashini boyitadi.

Tuzkon – Jizzax viloyatidagi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimiga kiruvchi ko‘l bo‘lib, u Jizzax shahridan 56 km shimoli-g‘arbda, Nurota tizmasining tarmog‘i – Pistalitog‘dan sharqroqda joylashgan. Ko‘l flora va faunasining noyobligi bilan ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. Ko‘lning janubi-sharqiy va sharqiy sohillarida sho‘rajriq (*Aeluropus*), yantoq (*Alhagi*), yulg‘un (*Elatinaceae*), oqboosh (*Cymboleana*), qamish (*Avena*), baliqko‘z (*Climacoptera*), qorabarak (*Ceratocargus*), tuyatovon (*Haplophyllum*), kendir (*Asclepiadaceae*), otquloq (*Rumex*), qizilsho‘ra (*Sueda*), qizilburgan, chitir (*Goldbachia*), arpag‘on (*Eremopyrum*), ching‘il (*Halimodendron*), oqching‘il, erkak qamish kabi sho‘rxok yerlarda o‘sovchi galofit va gigrofit o‘simliklar tarqalgan.

Ko‘lda xo‘jalikning baliqchilik tarmog‘i yaxshi rivojlangan. Bu yerda baliqlarning 22 turi mavjud bo‘lib, ulardan faqat 13 turi mahalliy hisoblanadi. Baliqlardan laqqa, zog‘orabaliq, oqcha, oqqayroq va boshqalari ovchilik ahamiyatiga ega. Baliqlarning 1 turi, ya‘ni Turkiston mo‘ylovli balig‘i O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan bo‘lib, uni ovlash ta‘qiqlanadi.

Sayyohlar asosan Tuzkon ko‘lida cho‘milish va baliq ovlash maqsadida tashrif buyurishadi. Ko‘lning sharqiy sohillarida bir nechta dam olish maskanlari mavjud bo‘lib, bular ichida **“Palma” dam olish maskani** qulay joylashuvi va maftunkor sohillari bilan ajralib turadi. Ushbu dam olish maskani 40°36'36"

shimoliy kenglik va 67°36'36" sharqiy uzunlikda joylashgan. Dam olish maskani hududida 10 dan ortiq soʻrilar mavjud boʻlib, unda asosan kunlik dam oluvchilar hordiq chiqarishadi.

Koʻl suvi tarkibi turli xil mineral elementlarga boy, choʻmilgan kishining tanasida turli xil toshmalar uchun tabiiy davolash xususiyatiga ham egadir shu sababli sayyohlar va dam oluvchilar koʻlda choʻmilishi hamda sohilboʻyida tuyalarda sayr qilishi mumkin. Koʻl qirgʻoqlari qumlar bilan qoplanganligi tabiiy sohil vazifasini ham oʻtaydi. Bu esa oʻz navbatida sohilboʻyidagi sport turlari (sohil futboli, sohil voleyboli) bilan shugʻullanib, hordiq chiqarish imkonini beradi.

Sayyohlar baliq ovlash va uni tanavvul qilib dam olishlari uchun qulay obyektlardan biri bu **“FishCO” dam olish maskani** hisoblanadi. Ushbu obyekt 40°35'58" shimoliy kenglik va 67°38'24" sharqiy uzunlikda joylashgan boʻlib, Tuzkon koʻlining sharqiy sohilidan 3 km janubi-sharqda joylashgan. Ushbu dam olish maskani hududida sayyohlar va dam oluvchilar uchun mehmon uylari, hostellar va restoran tashkil etilgan. Shuningdek, dam olish maskani hududidagi koʻl baliq ovi qiziquvchilarini oʻziga jalb etadi. Ushbu koʻl qirgʻoqlarining umumiy uzunligi 18 km ni, maydoni esa 3,8 km² ni tashqil qiladi.

Tuzkon koʻlining sharqiy sohilidan 5 km janubi-sharqda va Navroʻz qishlogʻidan 3 km sharqda, asosiy avtomobil yoʻli yaqinida joylashgan **shifobaxsh balchiq koʻli** ham dam oluvchilarni, shuningdek, davolanuvchilarni oʻziga jalb etadi. Ushbu obyekt 40°35'21.0" shimoliy kenglik va 67°39'31.8" sharqiy uzunlikda joylashgan. Shifobaxsh balchiq koʻli qirgʻoqlarining chegaralari 2,5 km ni, maydoni esa qariyb 21 gektarni (0,21 km kv) tashkil etadi. Ushbu koʻl sathi bahor oylarida yuqori darajada koʻtariladi va yoz oylarning boshida katta qismi qurib qoladi. (1-rasm)



Shifobaxsh balchiq ko‘lining suniy yo‘ldosh orqali olingan tasviri (1-rasm)

Shifobaxsh balchiq ko‘liga davolanuvchilar asosan may-sentabr oylari orasida tashrif buyurishadi va balchiq orqali bo‘g‘im, oyoqlardagi ko‘plab kasalliklarga tabiiy davo topishadi. Balchiq inson tanasi uchun foydali turli minerallarga boy bo‘lganligi uchun undan ko‘plab sanatoriyalarga olib ketishadi.

Xulosa va takliflar:

Sayyohlarni bu hududga qiziqishiga, ko‘l va cho‘l manzaralarining o‘zaro uyg‘unligi hamda qushlar olamiga boyligi, qolaversa bahor va kuz faslida issiq mintaqalarga uchuvchi qushlarni Aydar-Arnasoy ko‘llari orqali harakatlanishini kuzatish va ba’zi bir ruxsat berilgan qushlarni ov qilishi, shuningdek davolanuvchilar uchun shifobaxsh balchiqning mavjudligi Tuzkon ko‘li va uning atrofida turizmni rivojlantirishga yetarlicha imkoniyat borligini ko‘rsatadi.

“Turizm mahallalarida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-fevraldagi 86-son qaroriga muvofiq Arnasoy tumani Baxtli MFY hududidan o‘tuvchi “Aydar-Arnasoy” ko‘li bo‘yida tashkil qilinadigan sohil zonalariga olib boruvchi 10 km masofadagi ichki yo‘llarni tamirlash, ko‘cha yoritgichlarini hamda tezkor internet tarmog‘i bilan taminlash ishlarini 2024-2025-yillarda amalga oshirilishi, hududning turistik salohiyatini yanada ko‘tarilishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, dam oluvchilarga ko‘plab sharoitlar yaratish, kelgusida Tuzkon ko‘li va uning atrofidagi hududlarga keluvchi sayyohlar sonini bir necha barobar oshishiga sabab bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Pardayev A.X., Norchayev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm. – O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: TDIU, 2011.
2. Краткий словарь иностранных слов.- М.: “Изд. Иностранных и национальных словарей”, 1958.- С.404.
3. Махмудова Д.Э. Айдар-Арнасой кўллар тизимида экологик вазият ва уни яхшилаш тадбирлари // Узбекистон Аграр фани хабарномаси. -Ташкент, 2004, -22-25 б.
4. Тухлиев И.С. Туризм асослари. - Самарқанд, Сам ИСИ. 2010. - 271 б.
5. Усмонова З.И, Ҳошимов М.А. Туристик экскурсион маршрутларнинг технологик хариталарини тузиш. - Самарқанд, СамИСИ, 2009.-36 б.
6. Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқаришни такомиллаштириш: муаммо ва ечимлари. Т.: “Иқтисодиёт”, 2016. – 9 б.
7. Ғўдалов М. Жиззах вилояти табиати ва уни муҳофаза қилиш. Монография. –Тошкент. Фан ва технология нашриёти 2014. 110 б.
8. Ғўдалов М. Айдар-Арнасой кўллар тизимининг ландшафтларга таъсири. Г.ф.ф.д. (PhD) илм. дар. олиш учун тақ. эт. дисс. – Т.: 2019.-137 б.
9. Arnasoy tumani Turizm departamenti ma'lumotlari 2022 yil
10. Arnasoy tumani hokimiyati statistika ma'lumotlari 2022 yil